e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


# IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

**ISSN 3060-5059 (Online)**
*Article / Original paper* https://doi.org/10.67227/0m3tkr97

# AYOL DISKURSIDA KONSEPTUAL METAFORALAR VA OBRAZLI KONSEPTUALIZATSIYA (V. VULFNING "MRS DALLOWAY" VA O'. HOSHIMOVNING "IKKI ESHIK ORASI" ROMANLARI MISOLIDA)

**Suvanova Xayriniso Bahriddin qizi**
Jizzax davlat pedagogika universiteti, o'qituvchi.
**e-mail:** uzoqovaxayriniso95@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0001-6408-6750

**Annotatsiya.**
Maqolada V. Vulfning "Mrs Dalloway" va O'. Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanlaridagi ayol diskursida konseptual metaforalarning shakllanishi hamda obrazli konseptualizatsiya usullari qiyosiy tahlil qilinadi. Klarissa, Rezia, Robiya va Ra'no obrazlarining nutqida namoyon bo'ladigan yorug'lik, makon, bo'lingan "men", his-tuyg'u va axloqiy poklik metaforalarining lingvokognitiv hamda milliy-madaniy xususiyatlari ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** ayol diskursi, konseptual metafora, obrazli konseptualizatsiya, manba soha, nishon soha, lingvokognitiv tahlil, yorug'lik metaforasi, qiyosiy tahlil.

# КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ МЕТАФОРЫ И ОБРАЗНАЯ КОНЦЕПТУАЛИЗАЦИЯ В ЖЕНСКОМ ДИСКУРСЕ (НА МАТЕРИАЛЕ РОМАНОВ В. ВУЛФ «МИССИС ДЭЛЛОУЭЙ» И У. ХАШИМОВА «МЕЖДУ ДВУМЯ ДВЕРЯМИ»)

**Суванова Хайринисо Бахриддин кизи**
Джизакский государственный педагогический университет, преподаватель.

**Аннотация.**
В статье проводится сравнительный анализ формирования концептуальных метафор и способов образной концептуализации в женском дискурсе на материале романов Вирджинии Вулф «Миссис Дэллоуэй» и Уткира Хашимова «Между двумя дверями». Раскрываются лингвокогнитивные и национально-культурные особенности метафор света, пространства, разделённого «я», эмоциональных переживаний и нравственной чистоты, проявляющихся в речи персонажей Клариссы, Резии, Робии и Раъно.

**Ключевые слова:** женский дискурс, концептуальная метафора, образная концептуализация, область-источник, область-цель, лингвокогнитивный анализ, метафора света, сравнительный анализ.

# CONCEPTUAL METAPHORS AND FIGURATIVE CONCEPTUALIZATION IN FEMALE DISCOURSE (A COMPARATIVE STUDY OF VIRGINIA WOOLF'S *MRS DALLOWAY* AND O'TKIR HOSHIMOV'S *IKKI ESHIK ORASI*)

**Suvanova Xayriniso Bahriddin qizi**
Jizzakh State Pedagogical University, Lecturer.

**Abstract.**
This article presents a comparative analysis of the formation of conceptual metaphors and methods of figurative conceptualization in female discourse in Virginia Woolf's *Mrs Dalloway* and O'tkir Hoshimov's *Ikki eshik orasi* (*Between Two Doors*). The study explores the linguocognitive and national-cultural characteristics of metaphors of light, space, the divided self, emotional experiences, and moral purity as manifested in the discourse of Clarissa, Rezia, Robiya, and Ra'no.

**Keywords:** female discourse, conceptual metaphor, figurative conceptualization, source domain, target domain, linguocognitive analysis, light metaphor, comparative analysis.

**Kirish**. So'nggi o'n yilliklarda metafora tilshunoslikda nutqni bezovchi vosita sifatidagina emas, balki inson tafakkurining tayanch mexanizmi sifatida o'rganila boshlandi. J. Lakoff va M. Jonson ta'kidlaganidek, metaforaning mohiyati bir narsani boshqa bir narsa orqali anglash va boshdan kechirishdan iborat [1; 5-b.]. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, badiiy matndagi metafora personajning dunyoni qanday «ko'rishi»ni, voqelikni qaysi tajriba sohalari orqali tartibga solishini ko'rsatib beruvchi ishonchli belgi hisoblanadi. Ayol obrazi nutqida va ichki monologida takrorlanuvchi metaforik modellar esa ayol ongining o'zi, muhabbat, qo'rquv, oila va jamiyat haqidagi tasavvurlarini ochib beradi.

Tadqiqot uchun bir-biridan zamon, makon va madaniyat jihatidan ancha uzoq bo'lgan ikki asar tanlandi. Virjiniya Vulfning 1925-yilda nashr etilgan «Mrs Dalloway» romani ong oqimi usulida yozilgan bo'lib, London shahridagi bir kunlik voqealar personajlar ongidagi xotira va kechinmalar orqali beriladi. O'tkir Hoshimovning «Ikki eshik orasi» romanida esa voqealar har bir bobda alohida qahramon tilidan hikoya qilinadi, natijada ayol ovozi muallif tavsifisiz, bevosita birinchi shaxs nutqi sifatida yangraydi. Tahlil uchun Klarissa Delloueyga Robiya, Septimusning rafiqasi Rezia (Lukretsiya)ga esa

ISSN 3060-5059 (Online)

Ra'no obrazi qiyos qilindi. Birinchi juftlikdagi ayollarning hayoti yoshlikdagi muhabbat bilan emas, keyinchalik qurilgan turmush bilan belgilanadi; ikkinchi juftlikdagi ayollar esa urush tufayli eridan ajralgan yoki eri bilan birga yolg'iz qolgan, ruhiy inqiroz va ijtimoiy «ochiqlik» holatini boshdan kechiradi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, ayol diskursi gender lingvistikasida asosan og'zaki nutq, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy so'rovnomalar materiallari asosida o'rganib kelinmoqda. Badiiy nasr esa ayol ongining ichki dunyosini eng nozik qatlamlarigacha ochib beruvchi manba bo'lib, unda metafora qahramonning o'zi ham to'liq anglamagan kechinmalarini so'zga aylantiradi. Ingliz va o'zbek yozuvchilari yaratgan ayol obrazlarini metaforik modellar asosida qiyoslash, bir tomondan, umuminsoniy kognitiv mexanizmlarni, ikkinchi tomondan esa har bir xalqning ayol taqdiri, oila va axloq haqidagi qarashlarining tildagi aksini aniqlash imkonini beradi.

Maqolaning maqsadi ingliz va o'zbek badiiy nasridagi ayol diskursida konseptual metaforalarning qaysi manba sohalariga tayanishini, ular qaysi nishon sohalarni obrazli konseptuallashtirishini aniqlash hamda ikki tildagi metaforik modellarning umumiy va milliy o'ziga xos jihatlarini ko'rsatishdan iborat. Shu maqsadda quyidagi vazifalar qo'yildi: ayol personajlar nutqidan metaforik qo'llangan birliklarni ajratib olish; ularni konseptual metafora modellariga birlashtirish; har bir model doirasida ingliz va o'zbek misollarini qiyoslash; farqlarning madaniy va gender asoslarini izohlash.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Tadqiqotning nazariy asosini konseptual metafora nazariyasi tashkil etadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, metafora bir konseptual sohaning (manba soha) tuzilmasini boshqa sohaga (nishon soha) ko'chirish, ya'ni ikki soha o'rtasidagi muvofiqliklar tizimidir. Z. Kyovechesh bu munosabatni «A konseptual soha – B konseptual sohadir» formulasi bilan ifodalaydi [2; 4-b.]. Manba soha odatda aniq, jismoniy tajribaga yaqin (yorug'lik, makon, harakat, jism), nishon soha esa mavhum (hayot, muhabbat, qo'rquv, shaxs) bo'ladi.

Badiiy metaforaning kundalik metaforadan farqini J. Lakoff va M. Terner atroflicha yoritgan. Ularning fikricha, shoir va yozuvchilar yangi metafora «ixtiro qilish»dan ko'ra, tilda mavjud odatiy konseptual metaforalarni kengaytiradi, batafsillashtiradi, shubha ostiga oladi yoki bir-biri bilan qo'shib yuboradi [3]. Bu kuzatish biz uchun muhim: Vulf va Hoshimov matnlaridagi ko'plab obrazlar aslida umuminsoniy modellarning muallif uslubidagi davomidir.

His-tuyg'ularning metaforik tuzilishi Z. Kyovecheshning «Metaphor and Emotion» monografiyasida keng o'rganilgan. Muallif emotsiya tushunchalari inson tanasi tajribasi va madaniy muhit asosida shakllanishini, shu bois ba'zi metaforalar universal, ba'zilari esa ma'lum madaniyatga xos bo'lishini ko'rsatadi [4]. Metaforani diskurs bilan bog'liq holda tahlil qilish masalasi E. Semino ishlarida [5], rus tilshunosligida esa N. D. Arutyunovaning metafora va diskurs munosabatiga bag'ishlangan tadqiqotida [6; 5–32-b.] yoritilgan. Gender masalasining tildagi aksi A. V. Kirilina tomonidan tizimli tahlil qilingan bo'lib, olima genderni ijtimoiy-madaniy konstrukt sifatida talqin etadi va uning til birliklarida qanday namoyon bo'lishini ko'rsatadi [7]. O'zbek tilshunosligida kognitiv yondashuvning nazariy asoslari, xususan, konsept va mental tuzilmalar masalasi Sh. Safarov tomonidan yoritilgan [8].

Ushbu ishlar bilan tanishuv shuni ko'rsatdiki, ayol diskursidagi metaforalarni ingliz va o'zbek badiiy nasri misolida qiyosiy o'rganish hali yetarli darajada amalga oshirilmagan. Mazkur maqola shu bo'shliqni qisman to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot materiali sifatida «Mrs Dalloway» romanining The Modern Library nashri [9] va «Ikki eshik orasi» romanining 2016-yilgi nashri [10] olindi. Metaforik birliklarni aniqlashda Pragglejaz guruhi ishlab chiqqan MIP usulidan foydalanildi [11; 3-b.]: avval matn parchasi to'liq o'qilib, umumiy mazmuni aniqlanadi; so'ngra leksik birliklar ajratiladi; har bir birlikning kontekstdagi ma'nosi uning asosiy (aniqroq, jismoniy) ma'nosi bilan solishtiriladi; agar ikki ma'no farqlansa-yu, kontekstual ma'no asosiy ma'noga qiyoslash orqali tushunilsa, birlik metaforik deb belgilanadi. Ajratib olingan birliklar keyin konseptual metafora modellariga birlashtirildi va qiyosiy, kontekstual-interpretativ hamda lingvokulturologik tahlil usullari asosida o'rganildi. Ingliz tilidagi misollar asliyatda keltirilib, qavs ichida o'zbekcha tarjimasi berildi (tarjima bizniki); o'zbek tilidagi misollar lotin yozuviga o'girildi. «Mrs Dalloway» romanining skanerlangan nusxasini matnga aylantirish va misollarni dastlabki saralashda sun'iy intellekt vositasidan foydalanildi; barcha iqtiboslar asl nashr bilan solishtirildi, tahlil va xulosalar uchun mas'uliyat muallifga tegishli.

**MUHOKAMA**

**1. Ayol «men»i: yig'ilgan olmos va ikkiga bo'lingan ayol.** Ikkala romanda ham ayol shaxsi yaxlit, o'zgarmas narsa sifatida emas, balki yig'iladigan, bo'linadigan yoki yo'qolib boradigan jism sifatida konseptuallashtiriladi. Klarissa Bond-stritda ketayotib o'zini ko'rinmas, tanilmas his etadi va buni ism orqali ifodalaydi: «this being Mrs. Dalloway; not even Clarissa any more; this being Mrs. Richard Dalloway» («Missis Dellouey bo'lish; hatto Klarissa ham emas; Missis Richard Dellouey bo'lish») [9; 14-b.]. Bu yerda ism shaxsning idishi, erining familiyasi esa uni ichidan siqib chiqaruvchi qobiq vazifasini bajaradi. Shu sababli Klarissa uchun «men»ni saqlab qolish – uni qayta yig'ishdir. Ko'zguga qaragan Klarissa haqida shunday deyiladi: «That was her self—pointed; dartlike; definite» («Bu uning o'zi edi – o'tkir, nayzadek, aniq»); uning shaxsi turli, bir-biriga zid qismlardan olam uchungina «one centre, one diamond» («bitta markaz, bitta olmos»)ga yig'iladi [9; 55-b.]. SHAXS – QIMMATBAHO TOSH, SHAXS – MARKAZ metaforalari Klarissaning ijtimoiy vazifasi bilan uzviy bog'liq: u mehmonxonada odamlarni birlashtiruvchi «uchrashuv nuqtasi»dir. Qahramonning o'zi ziyofatlarini «an offering; to combine, to create» («nazr; birlashtirish, yaratish») deb ataydi [9; 185-b.]. Demak, Vulfda ayol «men»i ichki parchalanishni yengib, ijodiy birlashtirish orqali qayta tiklanadi.

Ra'no nutqida esa «men»ning bo'linishi ikki erkak o'rtasidagi ahvol bilan izohlanadi: «Go'yo men ikkita Ra'noman. Bittasi – Shomurod akamniki, bittasi – Umar akaniki!» [10; 311-b.]. Keyinroq bu obraz yana takrorlanadi: «bir tanada ikkita odam bo'lib yashashdan charchab ketdim» [10; 501-b.]. Bu yerda SHAXS – BO'LINADIGAN JISM modeli egalik qo'shimchasi (*akamniki, akaniki*) bilan kuchaytirilgan: ayolning har bir «yarmi» kimgadir tegishli. Klarissa o'zini erining familiyasi ichida yo'qotib qo'yishdan qo'rqsa, Ra'noning «men»i umuman erkaklarga tegishlilik orqali o'lchanadi. Rezia obrazida ham shunga yaqin manzara kuzatiladi. Yolg'izlik zulmatida qolgan Rezia o'zini go'yo oldida birdan paydo bo'lgan

tokchada turgandek his qiladi va o‘zining Septimusning xotini ekanini aytadi; ammo «Turning, the shelf fell; down, down she dropped» («Burilishi bilan tokcha qulab tushdi; u pastga, pastga qulab ketdi») [9; 35-b.]. Rafiqalik maqomi bu yerda ayolni ushlab turgan tayanch sifatida tasvirlangan; tayanch qulashi bilan shaxs ham «yiqiladi». Shunday qilib, ikkala romandagi ikkinchi juftlik qahramonlari uchun ayol «men»i erga nisbatan belgilanadigan tayanch nuqtaga bog‘liq.

**2. Yorug‘lik va olov: «gugurt cho‘g‘i»dan «umid chirog‘i»gacha.** Yorug‘lik manba sohasi ikkala asarda ham eng mahsuldor sohalardan biri bo‘lib chiqdi, biroq uning talqini keskin farq qiladi. Vulfda yorug‘lik lahzalik ichki ochilish, epifaniyani ifodalaydi. Klarissa boshqa bir ayol jozibasiga berilgan lahzani shunday eslaydi: «she had seen an illumination; a match burning in a crocus; an inner meaning almost expressed» («u bir nurni ko‘rgan edi; krokus guli ichida yonayotgan gugurt; deyarli ifodalangan ichki ma’no») [9; 47-b.]. Bu metafora ikki manba sohani – olov va gulni – qo‘shib yuboradi: nozik, tez so‘nuvchi gugurt alangasi gul kosachasi ichida yonadi. J. Lakoff va M. Terner ta’riflagan «qo‘shish» mexanizmi [3] shu yerda yaqqol ko‘rinadi. Muhimi, bu yorug‘lik uzoq davom etmaydi: matn darhol «It was over—the moment» («O‘tdi – o‘sha lahza») deya davom etadi [9; 47-b.].

Hoshimovda yorug‘lik ko‘pincha uydagi chiroq obrazi orqali beriladi va maishiy, oilaviy mazmun kasb etadi. Robiya urush yillaridagi umidni «ko‘nglimizda lipillab turgan umid chirog‘ining piligini ko‘tarib qo‘ygandek bo‘ldi» deb tasvirlaydi [10; 433-b.]. «Umid chirog‘i» o‘zbek tilida odatiy birikma bo‘lsa-da, yozuvchi uni pilik detali bilan batafsillashtiradi: umidni oshirish – pilikni ko‘tarish, ya’ni ayolning kundalik harakati. Ra’no nutqida esa xuddi shu obraz ayol sadoqatini ifodalaydi: «Go‘yo erimga atab yoqib o‘tirgan chirog‘imni Umar akam o‘chirib qo‘ygandek, bu chiroq endi faqat shu odamni yoritishi kerakdek» [10; 502-b.]. MUHABBAT – CHIROQ metaforasida ayol chiroqni «yoquvchi» va «asrovchi», uning kimni yoritishi esa ayolning kimga tegishli ekanini bildiradi. Umid uzilgan paytda Ra’no «ko‘nglimdagi umid chirog‘i o‘chib qolayotgandek» bo‘lganini aytadi [10; 316-b.], qiyin kunlarda esa uni qo‘llab-quvvatlagan ayol haqida shunday deydi: «Mening qo‘limdagi chiroq – Oysara opa edi» [10; 518-b.]. Oxirgi misolda insonning o‘zi chiroqqa aylanadi: YORDAM BERUVCHI ODAM – QO‘LDAGI CHIROQ.

Yorug‘lik sohasining yana bir ko‘rinishi – yulduz obrazi. Robiya qiz orzusini shunday ta’riflaydi: «Bo‘yi yetgan qizning orzusi osmondagi yulduzga o‘xshaydi. Uzoqdan yaraqlab ko‘rinadi-yu, na yetasan, na tutasan»; so‘ng bevosita aytadi: «Mening yulduzim – Kimsan akam edi» [10; 155-b.]. Yulduzning yo‘qotilishi ham shu model doirasida beriladi: «yulduzim yonimda edi. Qo‘limdan yulib olishdi» [10; 156-b.]. Bu metafora o‘zbek xalq tasavvuridagi *yulduzi yulduziga to‘g‘ri kelmoq* iborasiga tayanadi va Robiyaning o‘zi ham shu iborani eslab o‘tadi [10; 155-b.]. Shunday qilib, o‘zbek ayol diskursida yorug‘lik taqdir, nasib bilan bog‘lanadi, Vulf qahramonida esa u shaxsiy, takrorlanmas ichki kechinma lahzasidir.

**3. Makon metaforalari: dengiz, chordoq va barg ostidagi qush.** Klarissaning yolg‘izligi ko‘pincha makon orqali beriladi. U doimo o‘zini «out, out, far out to sea and alone» («tashqarida, uzoqda, dengizning olis qa’rida va yolg‘iz») his qiladi [9; 11-b.]. Uyiga qaytgach esa «Like a nun withdrawing, or a child exploring a tower, she went upstairs» («Dunyodan chekinayotgan rohibadek yoki minorani kezayotgan boladek u yuqoriga ko‘tarildi»); hayot markazidagi bo‘shliq «an attic room» («chordoqdagi xona»)ga qiyoslanadi va «Narrower and narrower would her bed be» («Uning to‘shagi tobora torayib boradi») deyiladi [9; 45–46-b.]. Bu yerda HAYOT – TORAYIB BORUVCHI MAKON, YOSH O‘TISHI – YUQORIGA, YOLG‘IZ XONAGA CHEKINISH modellari ishlaydi. Ochiq dengiz va tor to‘shak bir-biriga zid ko‘rinsa-da, ikkalasi ham ayolni boshqalardan ajratib qo‘yadi.

Rezia uchun makon himoyasizlik bilan bog‘liq. Begona shaharda yolg‘iz qolgan ayol shunday tasvirlanadi: «She was like a bird sheltering under the thin hollow of a leaf, who blinks at the sun when the leaf moves; starts at the crack of a dry twig» («U yupqa barg panasiga yashiringan, barg qimirlaganda quyoshdan ko‘zini qisadigan, quruq shox chirsillashidan cho‘chib tushadigan qushga o‘xshardi») [9; 99-b.]. AYOL – QUSH, HIMOYASIZLIK – OCHIQ MAKON metaforalarini matnning o‘zi davom ettiradi: u «exposed» («ochiq qolgan»), ulkan daraxtlar va befarq dunyo bulutlari qurshovida [9; 99-b.]. Qizig‘i shundaki, qush obrazi Klarissa nutqida ham uchraydi: qo‘rquv kuchaygan paytda u «crouch like a bird and gradually revive» («qushdek g‘ujanak bo‘lib, asta-sekin o‘ziga kelardi») [9; 281–282-b.]. Demak, Vulf uchun qush – ayolning zaif, ammo qayta tiklana oladigan holatining universal belgisi.

Ra’no nutqida qush obrazi boshqacha baho bilan keladi: hadik bilan yashash azobidan qutulishni u «bir cho‘qib, atrofga ming alanglagan qarg‘adek ayanchli ahvoldan xalos bo‘lsam» deb ifodalaydi [10; 291-b.]. Rezia – nozik qush, Ra’no esa o‘zini «qarg‘a»ga o‘xshatadi; o‘zbek madaniyatida qarg‘a obrazi salbiy bo‘yoqqa ega bo‘lgani uchun bu tanlov qahramonning o‘ziga bergan axloqiy bahosini ham ko‘rsatadi. Ra’noning boshiga tushgan holat esa tuzoq metaforasi bilan beriladi: «Zakunchining domiga qanday ilindim?» [10; 296-b.]. Bu yerda MUHABBAT/VASVASA – TUZOQ, AYOL – O‘LJA modeli ishlaydi; makon endi ochiq va bo‘sh emas, balki ayolni tutib qolgan, erkak tomonidan qo‘yilgan to‘rdir.

**4. His-tuyg‘u – dushman kuch: maxluq, qilich va ummon.** Z. Kyovechesh his-tuyg‘ularni KUCH sifatida tasavvur qilish eng keng tarqalgan modellardan biri ekanini ta’kidlaydi [4]. Ikkala romanda ham bu model mavjud, ammo kuch manbai turlicha joylashadi. Klarissa Miss Kilmanga nisbatan nafratini o‘z ichidagi yirtqich jonzot sifatida tasvirlaydi: «this brutal monster! to hear twigs cracking and feel hooves planted down in the depths of that leaf-encumbered forest, the soul» («bu yovuz maxluq! shoxlarning qarsillashini eshitish, tuyoqlarning o‘sha barg bosgan o‘rmon – qalb qa’riga botganini his etish») [9; 17-b.]. NAFRAT – YIRTQICH HAYVON, QALB – O‘RMON metaforalari birgalikda kengaytirilgan obraz hosil qiladi: dushman tashqarida emas, ayolning o‘z ichida.

Ra’no uchun esa qo‘rquv tashqaridan, jamiyatdan keladi: «Dunyoda hadiksirab yashashdan ortiq azob yo‘q ekan. Go‘yo boshingda birov qilich ko‘tarib turgandek, sen bo‘lsang har lahzada o‘sha qilich bo‘yningga tushishini kutayotgandek» [10; 291-b.]. Yigirma sahifa keyin metafora o‘z yakuniga yetadi: «Salkam uch oydan beri boshimda osilib turgan qilich shu edi. Mana bugun o‘sha qilich bo‘ynimga tushdi» [10; 311-b.]. Qilichni ko‘targan «birov» – el-yurt malomati; Ra’no bevosita «odamlarning malomatidan qo‘rqadigan bo‘lib qoldim» deydi [10; 311-b.]. Shunday qilib,

QO‘RQUV – BOSH USTIDAGI QILICH metaforasi o‘zbek ayolining his-tuyg‘usi jamoa hukmi bilan qanchalik chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Qayg‘u va alam ikkala asarda ham suyuqlik, dengiz obrazi orqali beriladi. Robiya onasining ko‘z yoshini ko‘rib, «ichida ummon bo‘lib yotgan alam endi shu ikki tomchiga aylanib toshib chiqqanini» his etadi [10; 130-b.]. Bu yerda ODAM – IDISH, ALAM – SUYUQLIK modeli giperbola bilan uyg‘unlashgan: ummon ikki tomchiga sig‘adi. Vulfda dengiz obrazi, aksincha, yukni olib ketuvchi kuch sifatida keladi: «Fear no more, says the heart, committing its burden to some sea, which sighs collectively for all sorrows» («Endi qo‘rqma, deydi yurak, o‘z yukini barcha qayg‘ular uchun birdek xo‘rsinadigan qandaydir dengizga topshirib») [9; 59-b.]. Agar o‘zbek qahramonida alam ichda to‘planib, tashqariga toshsa, ingliz qahramonida u umumiy dengizga topshirilib, yengillik keltiradi. Robiyaning «boshiga tog‘dek kulfat tushsa» [10; 222-b.] degan ifodasi ham KULFAT – OG‘IR YUK modelining o‘zbek tilidagi odatiy, frazeologik ko‘rinishidir.

**5. So‘z va ovoz metaforalari.** Ayol diskursining muhim jihati – ayolning so‘zni qanday his qilishidir. O‘zbek romanida so‘z jarohat yetkazuvchi narsa sifatida konseptuallashtiriladi. Ra’no Robiyaning gaplarini «Robiyaning har so‘zidan zahar tomib, aytgan gapi qulog‘imga o‘qdek kirdi» deb eslaydi [10; 312-b.], Robiya esa onasining so‘zlarini «Oxirgi gapi hukmnomadek eshitildi» deb baholaydi [10; 162-b.]. SO‘Z – ZAHAR, SO‘Z – O‘Q, SO‘Z – HUKM metaforalarida so‘zning ta’sir kuchi va uni aytuvchining hukmronligi birinchi o‘ringa chiqadi. Ahamiyatlisi, bu misollarda so‘zni boshqa bir ayol aytadi: ayollar orasidagi munosabat ham hukm va jarohat tili bilan beriladi.

Rezia nutqida esa muammo so‘zning kuchida emas, uni eshitadigan odam yo‘qligida. U Milan bog‘lari haqida ovoz chiqarib gapiradi, ammo matn darhol «But to whom? There was nobody. Her words faded. So a rocket fades» («Lekin kimga? Hech kim yo‘q edi. Uning so‘zlari so‘ndi. Raketa shunday so‘nadi») deya davom etadi [9; 34-b.]. SO‘Z – SO‘NUVCHI YORUG‘LIK metaforasi begona yurtda tushunilmagan ayolning yolg‘izligini ifodalaydi. Bu bilan Vulf ayol ovozining kommunikativ bo‘shliqqa tushib qolishini ko‘rsatadi, Hoshimov esa ayol so‘zini ijtimoiy kurash quroli sifatida tasvirlaydi.

**6. Axloqiy poklik: choyshab, farishta va ilon.** Poklik konsepti ikkala romanda ham ayol obrazi bilan chambarchas bog‘liq, ammo turlicha konseptuallashtiriladi. Vulfda poklik shaxsiy, psixologik kechinma: Klarissa farzand ko‘rganiga qaramay saqlanib qolgan qizlikni «a virginity preserved through childbirth which clung to her like a sheet» («tug‘ishdan keyin ham saqlanib qolgan, unga choyshabdek yopishib olgan qizlik») deb his qiladi [9; 46-b.]. POKLIK – LIBOS (CHOYSHAB) metaforasi bu yerda ijobiy emas, aksincha, ayolni boshqalardan ajratib turgan sovuq qobiq ma’nosini beradi.

O‘zbek romanida poklik diniy-axloqiy va jamoaviy baho bilan beriladi. Robiya Ra’noning xatti-harakatidan so‘ng shunday o‘ylaydi: «Inson bolasi ilonga aylanib qolishi hech gap emas ekan»; bir paytlar u Ra’noni «oppoq farishta» sifatida ko‘rgan edi [10; 286-b.]. AXLOQIY ODAM – FARISHTA, AXLOQIY YIQILGAN ODAM – ILON qarama-qarshiligi o‘zbek madaniyatidagi diniy tasavvurlarga tayanadi. Ra’no ham o‘ziga xuddi shu tizimda baho beradi: «Toshkentning suvi harom edi menga! Nima? Toshkentning suvi harom dedimmi? Balki mening o‘zim haromdirman!» [10; 483-b.]. Bu yerda HALOL/HAROM tushunchasi suvga, so‘ngra ayolning o‘ziga ko‘chiriladi. Shu parchaning davomida Ra’no hech kim bir umr farishta bo‘lib yasholmasligini aytadi [10; 483-b.], ya’ni o‘ziga berilgan baholovchi modelni shubha ostiga oladi.

**NATIJALAR**

Tahlil natijalari 1-jadvalda umumlashtirildi. Jadvalda har bir konseptual metafora modeli uchun ikki romandan olingan asosiy til birliklari va ularning talqinidagi farq ko‘rsatilgan.

**1-jadval. “Mrs Dalloway” va “Ikki eshik orasi” romanlaridagi ayol diskursida asosiy konseptual metafora modellari**

| **Konseptual metafora modeli** | **“Mrs Dalloway” (Klarissa, Rezia)** | **“Ikki eshik orasi” (Robiya, Ra’no)** | **Asosiy farq** |
|---|---|---|---|
| SHAXS – YIG‘ILADIGAN / BO‘LINADIGAN JISM | *one centre, one diamond*; *not even Clarissa any more*; *the shelf fell* | *ikkita Ra’noman*; *bir tanada ikkita odam* | ichki yaxlitlikni tiklash – ikki erkak o‘rtasida bo‘linish |
| UMID / MUHABBAT – YORUG‘LIK | *an illumination; a match burning in a crocus* | *umid chirog‘i*; *chirog‘imni o‘chirib*; *mening yulduzim* | lahzalik epifaniya – maishiy chiroq va taqdir yulduzi |
| YOLG‘IZLIK / HIMOYASIZLIK – MAKON | *far out to sea*; *an attic room*; *like a bird sheltering under … a leaf* | *domiga ilindim*; *qarg‘adek ayanchli ahvol* | ekzistensial yolg‘izlik – ijtimoiy tuzoq |
| HIS-TUYG‘U – KUCH / SUYUQLIK | *brutal monster*; *committing its burden to some sea* | *boshingda qilich*; *ummon bo‘lib yotgan alam*; *tog‘dek kulfat* | ichki dushman – jamoa hukmi |
| SO‘Z – QUROL / YORUG‘LIK | *Her words faded. So a rocket fades* | *so‘zidan zahar tomib*; *o‘qdek kirdi*; *hukmnomadek* | adresatsiz ovoz – jarohatlovchi so‘z |
| POKLIK – LIBOS / SUV / QIYOFA | *clung to her like a sheet* | *oppoq farishta*; *ilonga aylanib*; *o‘zim haromdirman* | psixologik kechinma – diniy-axloqiy baho |

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ikki romandagi ayol diskursi bir xil manba sohalariga – yorug‘lik, makon, qush, jism, suyuqlik va qurolga – tayanadi. Bu Z. Kyovechesh ta’kidlagan inson tanasi tajribasiga asoslangan universal modellarning

mavjudligini tasdiqlaydi [4]. Biroq bu modellarni to‘ldiruvchi mazmun va ularning baholovchi bo‘yog‘i turlicha.

Birinchidan, Vulf qahramonlari nutqida metaforalar ko‘proq muallifona, kengaytirilgan va birlashtirilgan obrazlardan iborat (gul ichidagi gugurt, qalb-o‘rmondagi maxluq, so‘nayotgan raketa). Hoshimov qahramonlari esa tilda mavjud odatiy, frazeologik asosli metaforalarni (*umid chirog‘i, yulduzi yulduziga to‘g‘ri kelmoq, tog‘dek kulfat, ko‘ngli sovimoq*) qayta jonlantiradi va maishiy detallar (pilik, qo‘ldagi chiroq) bilan batafsillashtiradi. Bu farq ong oqimi uslubi va birinchi shaxs hikoyasi o‘rtasidagi janr-uslubiy farq bilan ham izohlanadi.

Ikkinchidan, ingliz ayol diskursida metaforaning nishoni ko‘pincha ayolning o‘zi va uning ichki dunyosidir: shaxs, nafrat, poklik ichkarida joylashadi. O‘zbek ayol diskursida esa metafora ayolni boshqalar bilan – er, sevgan kishi, opa-singil, el-yurt bilan – bog‘laydi: chiroq kimnidir yoritadi, qilichni kimdir ko‘taradi, so‘z kimdandir zahar bo‘lib tomadi. Boshqacha aytganda, Vulfda ayol «men»i individual, Hoshimovda esa munosabatlar orqali belgilanadigan (relyatsion) tarzda konseptuallashtiriladi.

Uchinchidan, baholash tizimi farqlanadi. Ingliz matnida ayol o‘zini psixologik va estetik mezonlar bilan baholaydi, o‘zbek matnida esa diniy-axloqiy (*farishta – ilon, halol – harom*) va jamoaviy (*malomat, rasvo bo‘lmoq*) mezonlar ustunlik qiladi. Shu bilan birga, Ra’noning hech kim bir umr farishta bo‘lib yashay olmasligi haqidagi fikri o‘zbek ayol diskursida ham an’anaviy baholash modeliga shubha bildirish imkoniyati borligini ko‘rsatadi. Bu holat J. Lakoff va M. Terner ta’kidlagan odatiy metaforani shubha ostiga olish mexanizmiga mos keladi [3].

**XULOSA**

O‘tkazilgan tahlil konseptual metaforalar ayol diskursida qahramonning o‘zini, muhabbatni, qo‘rquvni va axloqni anglash usulini shakllantiruvchi asosiy vosita ekanini ko‘rsatdi. «Mrs Dalloway» va «Ikki eshik orasi» romanlaridagi ayol obrazlari nutqida oltita asosiy model ajratildi: SHAXS – YIG‘ILADIGAN/BO‘LINADIGAN JISM, UMID/MUHABBAT – YORUG‘LIK, YOLG‘IZLIK – MAKON, HIS-TUYG‘U – KUCH/SUYUQLIK, SO‘Z – QUROL/YORUG‘LIK va POKLIK – LIBOS/SUV/QIYOFA. Manba sohalarining umumiyligi ushbu modellarning universal, inson tajribasiga asoslangan tabiatidan dalolat beradi. Ularning milliy-madaniy o‘ziga xosligi esa birinchi navbatda nishon sohani to‘ldiruvchi mazmunda, metaforaning odatiy yoki muallifona xarakterida va baholovchi mezonlarda namoyon bo‘ladi: ingliz romanida ayol «men»i ichki, individual va lahzalik kechinmalar orqali, o‘zbek romanida esa oila, taqdir va jamoa hukmi bilan bog‘liq holda obrazli tarzda konseptuallashtiriladi. Olingan natijalar ayol diskursining pragmatik jihatlarini, xususan, ayol nutqidagi baholash va ta’sir strategiyalarini o‘rganishda asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p. – URL: https://find.library.upenn.edu/catalog/994228803503681. find.library.upenn.edu
2. Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction. – 2nd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2010. – URL: https://books.google.com/books?id=PqC2y3FUJeIC. books.google.com
3. Lakoff G., Turner M. More than Cool Reason: A Field Guide to Poetic Metaphor. – Chicago: University of Chicago Press, 1989. – URL: https://press.uchicago.edu/ucp/books/book/chicago/M/bo3774967.html. press.uchicago.edu
4. Kövecses Z. Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000. – 223 p. – URL: https://iucat.iu.edu/iub/6913816. IUCAT Bloomington
5. Semino E. Metaphor in Discourse. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – URL: https://research.lancaster-university.uk/en/publications/metaphor-in-discourse/. research.lancaster-university.uk
6. Арутюнова Н. Д. Метафора и дискурс // Теория метафоры. – Москва: Прогресс, 1990. – С. 5–32. – URL: https://studfile.net/preview/5643546/. studfile.net
7. Кирилина А. В. Гендер: лингвистические аспекты. – Москва: Институт социологии РАН, 1999. – 189 с. – URL: https://rusneb.ru/catalog/000200_000018_RU_NLR_bibl_67619/. НЭБ [000200_000018_RU_NLR_bibl_67619]
8. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 92 b. – URL: https://book.iiau.uz/books/kognitiv-tilshunoslik-16610. IIAU Digital Library
9. Woolf V. Mrs Dalloway. – New York: The Modern Library, 1928. – URL: https://archive.org/details/in.ernet.dli.2015.93420
10. Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi: roman. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 752 b. – URL: https://cspu.uz/ikki-eshik-orasi. cspu.uz
11. Praggle jaz Group. MIP: A Method for Identifying Metaphorically Used Words in Discourse // Metaphor and Symbol. – 2007. – Vol. 22, № 1. – P. 1–39. – DOI: https://doi.org/10.1080/10926480709336752.